

CHINGIZ AYTMATOV IJODIGA NAZAR: "QIYOMAT" ASARINING
FALSAFIY-PSIXOLOGIK TAHLILI

Usmonov Murodjon Ibrohim o'g'li
Successland o'quv markazi "Arab tili" katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Chingiz Aytmatovning "Qiyomat" asari XX asr adabiyotining eng chuqur falsafiy-badiiy hodisalari qatoriga kiradi. Asar insonning ruhiy tanazzuli, ekologik inqiroz, axloqiy mas'uliyat, urushning yashirin oqibatlari, jamiyatning ma'naviy halokati kabi dolzarb mavzularni o'tkir dramatik voqealar orqali yoritadi.

Muallif o'quvchini "qiyomat" tushunchasiga yangicha nazar bilan qarashga undaydi: bu — osmonda tushadigan balo emas, balki insonning o'z qo'li bilan yaratgan, ichidan boshlanadigan halokatdir.

Kalit so'zlar: Qiyomat romani, ma'naviy inqiroz, ruhiy qiyomat, psixologik konflikt, vijdon, mas'uliyat, ma'naviy uyg'onish.

Аннотация: Роман Чингиза Айтматова «Плаха» относится к числу наиболее глубоких философско-художественных явлений литературы XX века. Произведение через острые драматические события раскрывает такие актуальные темы, как духовный упадок человека, экологический кризис, нравственная ответственность, скрытые последствия войны и духовная гибель общества. Автор побуждает читателя взглянуть на понятие «конца света» по-новому: это не кара, ниспосылаемая с небес, а катастрофа, созданная самим человеком и начинающаяся внутри него.

Ключевые слова: роман «Плаха», духовный кризис, духовный апокалипсис, психологический конфликт, совесть, ответственность, духовное пробуждение.

Annotation: Chingiz Aitmatov's novel *The Scaffold* is regarded as one of the most profound philosophical and artistic phenomena of twentieth-century literature. Through intense dramatic events, the work addresses such pressing themes as the spiritual decline of the individual, ecological crisis, moral responsibility, the hidden consequences of war, and the spiritual collapse of society. The author encourages the reader to reconsider the concept of the "end of the world": it is not a punishment sent down from the heavens, but a catastrophe created by human beings themselves and beginning from within.

Keywords: *The Scaffold*, spiritual crisis, spiritual apocalypse, psychological conflict, conscience, responsibility, spiritual awakening.

KIRISH

Bugungi kunda Yer yuzida kuzatilayotgan ekologik ofatlar, suv resurslarining tugab borishi, yovvoyi hayvonlarning qirilishi, ijtimoiy zo'ravonlikning kuchayishi, urush va axborot bosimining avj olishi asarda ko'rsatilgan fikrlarning naqadar bashoratli ekanini tasdiqlaydi. Ayniqsa, yoshlarning ongida ma'naviy tanazzulning kuchayishi, vijdonning asta-sekin o'chib borishi asarda tasvirlangan voqealar bilan uyg'unlik hosil qiladi.

Shu sababli ushbu maqolada "Qiyomat" asarining ma'naviy-ijtimoiy mohiyati chuqur ilmiy tahlil qilinadi, asardagi g'oyalar bugungi zamon hodisalari bilan qiyoslanadi va o'quvchini o'ylashga chorlaydigan xulosalar beriladi.

Asosiy qism. Mazkur tadqiqotning maqsadi, "Qiyomat" asaridagi qahramonlarning psixologik dunyosini, ularning ruhiy o'zgarish mexanizmini hamda Aytmatovning falsafiy qarashlarining badiiy talqinini izohlashdir.

Tadqiqot vazifalari:

1. Asardagi asosiy konfliktlarning psixologik mohiyatini ochib berish;
2. Qahramonlarning ruhiy portretlarini tahlil qilish;
3. Asarning umumiy falsafiy kontsepsiyasini aniqlash.

Tadqiqot adabiy tahlilning quyidagi metodlariga asoslandi:

1. Psixologik tahlil metodi – qahramonlarning ichki kechinmalari, motivlari, ruhiy o'zgarishlari A.Adler, K.Yung, E.Fromm kabi psixologlarning nazariy qarashlari bilan solishtirildi. Yung nazariyasi asosida, Avdiy va Ormonxo'ja arxetiplari orqali inson ruhining turli qirralari ko'rsatiladi.

Adler nazariyasi Askar va Bazarboyning psixologik zaifligi va ijtimoiy intilishlari ruhiy konfliktlarni izohlashga yordam beradi.

Fromm nazariyasi [2] asosida esa Avdiy mas'uliyatni tanlaydi, Askar va Bazarboy mas'uliyatdan qochadi — bu ularning ruhiy tanazzulini tushuntiradi.

2. Falsafiy-germenevtik yondashuv [5] – asardagi ramz, timsol va falsafiy ma'nolar sharhlandi.

3. Komparativ tahlil – "Qiyomat" romani Aytmatovning boshqa asarlari ("Oq kema", "Ona yer") bilan ma'lum darajada taqqoslandi.

4. Struktural tahlil – syujet, konflikt, obrazlar tizimi va g'oya o'rganildi [4].

Metodlarning uyg'un qo'llanishi asarni chuqurroq talqin qilish imkonini berdi

1. Asardagi psixologik konfliktlar:

Tadqiqot natijasida aniqlanishicha, "Qiyomat" romanida ikki yirik psixologik konflikt mavjud:

a) Inson – Jamiyat konflikti. Avdiy Kalistratovning ruhiy qiyofasi jamiyatdagi axloqiy inqirozga qarshi kurashuvchi "idealistik ong" rolini bajaradi. Uning yo'li — ruhiy qutqaruv yo'li. Biroq jamiyat haqiqatni qabul qilishga tayyor emas. Natijada Avdiy — fojiali qahramon.

b) Inson – O'zi bilan kurash. Askar va Bazarboy obrazlarida insonning ichki yorilishi, ma'naviy tubanlikka qulashi tasvirlanadi. Ularning ichki jaholat, qo'rquv va shaxsiy manfaatlarga berilishi psixologik falokatni keltirib chiqaradi.

2. Qahramonlarning ruhiy portretlari

Avdiy Kalistratov – ruhiy najot timsoli Avdiy ma'naviy uyg'onish, ruhiy tozalik va "axloqiy payg'ambar"likning badiiy modelidir. Uning ichki dunyosi Erich Frommning "insonning erkinlikdan qochishi" nazariyasiga zid sifatda talqin etiladi: Avdiyning jasorati — jamiyatning ruhiy qulflarini sindirishga qaratilgan. Biroq uning fojiali o'limi jamiyatning ma'naviy e'tiborsizligidan darak beradi.

Askar – ma'naviy zaiflikning psixologik timsoli. Askar muhabbat, vijdon va burch o'rtasida chayqalgan, kuchsiz xarakterdir. U dramatik holatni hal eta olmasdan, ongli

ravishda "bema'ni sukunat"ni tanlaydi. Bu Adlarning "pastlik kompleksi" bilan bog'liq: o'ziga ishonchsizlik uni ruhiy tanaffusga olib keladi.

Bazarboy – shafqatsizlikning evolyutsiyasi. U Aytmatovning jinoyatchilik psixologiyasiga oid eng murakkab obrazlaridan biridir. Uning qilmishlari (mehmondo'stlik tamoyillarini buzish, xiyonat, zo'ravonlik) — shaxsning qadriyatlardan uzilishi, "ruhiy qiyomat"ning boshlanishiga misoldir.

Ormonxo'ja – jamiyatning axloqiy irmoqsiz qatlami. Ormonxo'ja timsoli orqali Aytmatov "marazlangan jamiyat" tushunchasini ko'rsatadi. U Avdiyga nisbatan zo'ravonlikni qonuniy deb biladi. Uning ruhiyati — ijtimoiy ongning yomonlashishi jarayoni.

3. Asarning falsafiy g'oyalari. Tahlil jarayonida Aytmatovning uch asosiy falsafiy kontseptsiyasi aniqlandi:

a) "Ruhiy Qiyomat" — haqiqiy falokatning boshlanishi. Aytmatovga ko'ra, qiyomat tabiatning yemirilishidan emas, avvalo insonning qalbidagi ezgulikning o'limidan boshlanadi.

b) Insonning o'z mohiyatini yo'qotishi — jamiyat fojiasi. Romanda jamiyatning ma'naviy immuniteti yo'qolgan: yolg'on normal, zo'ravonlik tabiiy, vijdon esa ikkinchi darajaga tushib qolgan.

c) Ezgu g'oya fojiali bo'lsa ham g'olib Avdiy o'ladi, ammo uning g'oyasi — ma'naviy uyg'onish — o'quvchi qalbida tirik qoladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, "Qiyomat" romani inson psixologiyasini o'ta teran, falsafiy yondashuvda ochib beradi. Aytmatovning badiiy olamida qiyomat - insonning ruhiy inqirozi, ichki dunyosining vayron bo'lishidir ichki dunyodagi qiyomatning boshlanishi demakdir. Bu fikr zamonaviy psixologiyada "axloqiy degeneratsiya" (buzilishi), falsafada esa "ma'naviy ekzistensial bo'shliq" sifatida izohlanadi.

Asarda Aytmatov jamiyatning o'z farzandlarini anglamasligi va ezgulikka befarqligini keskin tanqid qiladi. Avdiy singari "ma'naviy uyg'oq" insonlar jamiyat tomonidan tushunilmaydi, natijada ular fojiali yakunga yuz tutadi. Bu holat tarixda ham takrorlangan: Suqrot, Mansur Halloj, Navoiy asarlaridagi ba'zi obrazlarda ham shunday taqdir mavjud.

Qahramonlarning xarakter tahlili shuni ko'rsatadiki, Aytmatov odamni faqat ijtimoiy mavjudot sifatida emas, balki murakkab ruhiy olamga ega bo'lgan ekzistensial mavjudot sifatida talqin qiladi. "Qiyomat" o'z mazmuniga ko'ra insonning o'zini anglash yo'lida qilgan xatolari, ruhiy sinishlari va nihoyat, ma'naviy tiklanish zarurligi haqida ogohlantiruvchi manifestdir.

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. "Qiyomat" romani insonning ma'naviy inqirozi va ruhiy axloqiy qadriyatlarning yemirilishi haqida chuqur falsafiy-psixologik talqindir.

2. Avdiy, Askar, Bazarboy, Ormonxo'ja kabi obrazlar orqali yozuvchi jamiyatning murakkab ijtimoiy-ruhiy holatini aks ettiradi.

3. Asarda keltirilgan holatlar zamonaviy jamiyat uchun ham dolzarb bo'lib, inson qalbini poklash, ma'naviy uyg'onish g'oyalarini ilgari suradi.

4. Roman o'quvchini o'zini anglash, vijdon, axloqiy tanlov va mas'uliyat haqida chuqur o'ylashga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Aytmatov Ch. Qiyomat. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 432 b.
2. Fromm E. Ozodlikdan qochish. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – 352 b.
3. Karimov N. XX asr jahon adabiyoti. — Toshkent: Universitet, 2010.
4. Qodirov V. Badiiy tahlil asoslari. — Toshkent: Akademnashr, 2015.
5. Rahimov S. Adabiyot va falsafa. — Toshkent: Ma'naviyat, 2012.